



UDK: 314.7:172

*Sardor ALIMOV,*

*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o‘qituvchisi, PhD*

*E-mail: sardoralimov2507@gmail.com*

*HMQA dotsenti, sots.f.b.f.d. (PhD) X.Akramov taqrizi asosida*

## INTELLEKTUAL MIGRATSIYA FENOMENI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA IJTIMOY-FALSAFIY OQIBATLAR

Аннотация

Ushbu maqolada intellektual migratsiya fenomenining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari tahlil qilingan. Global migratsion jarayonlar kontekstida intellektual migratsiya hodisasining ijobiy va salbiy jihatlari, uning milliy intellektual salohiyatga ta'siri yoritilgan. O‘zbekiston tajribasi asosida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Intellektual migratsiya, inson kapitali, “brain drain”, Xirshman nazariyasi, kosmopolitizm, kommunitarizm, diaspora.

## ФЕНОМЕН ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МИГРАЦИИ: ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И СОЦИАЛЬНО- ФИЛОСОФСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация

В статье анализируются социально-философские особенности феномена интеллектуальной миграции. В контексте глобальных миграционных процессов раскрываются положительные и отрицательные стороны «утечки умов», а также её влияние на национальный интеллектуальный потенциал. Рассматриваются проблемы и возможные решения на примере Узбекистана.

**Ключевые слова:** Интеллектуальная миграция, человеческий капитал, «утечка мозгов», теория Хиршмана, космополитизм, коммунитаризм, диаспора.

## THE PHENOMENON OF INTELLECTUAL MIGRATION: GLOBAL TRENDS AND SOCIO-PHILOSOPHICAL CONSEQUENCES

Annotation

This article explores the socio-philosophical aspects of intellectual migration. Within the context of global migration processes, it highlights both the positive and negative dimensions of the “brain drain” phenomenon and its impact on national intellectual capacity. The case of Uzbekistan is analyzed to outline key challenges and solutions.

**Keywords:** Intellectual migration, human capital, brain drain, Hirschman's theory, cosmopolitanism, communitarianism, diaspora.

**Kirish.** Insoniyat tarixi doimo harakat va ko‘chishlardan iborat bo‘lib kelgan, ammo XXI asrning uchinchi o‘n yilligida migratsiya jarayonlari o‘zining ko‘lami, tezligi va tarkibiy tuzilishi bilan oldingi davrlardan tubdan farq qiladi. Bugungi global jamiyatda aholi migratsiyasi eng tipik va ta’sirchan fenomenlardan biriga aylandi. Xalqaro migratsiya tashkilotining 2024-yil uchun taqdim etgan jahon migratsiya hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab xalqaro migrantlar soni rekord darajaga – 304 million kishiga yetgan, bu esa Yer yuzi aholisining qariyb 3,7 foizini tashkil etadi[1]. 1990-yilda bu ko‘rsatkich 154 million atrofida bo‘lganini inobatga olsak, so‘nggi o‘ttiz yilda global mobillik ikki baravarga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Biroq, bu raqamlar ortida shunchaki demografik siljishlar emas, balki chuqur ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar, qadriyatlar to‘qnashuvi va milliy davlatlar oldida turgan jiddiy xavflar yotibdi. Migratsiya oqimlarining eng sezgir va strategik ahamiyatga ega qismi bu – “intellektual migratsiya” (“brain drain”) fenomenidir. Rivojlanayotgan davlatlardan intellektual salohiyatli insonlar, olimlar, yuqori malakali shifokorlar va muhandislarning rivojlangan mamlakatlarga ommaviy ravishda ko‘chishi nafaqat iqtisodiy yo‘qotish, balki donor jamiyatning ijtimoiy-axloqiy muhitida barqarorlikning susayishi sifatida ham baholanishi lozim.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi uchun ushbu masala o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyalari bevosita yuqori sifatli inson kapitaliga tayanadi. Lekin globallashuv jarayoni iqtidorli yoshlar va tajribali mutaxassislar uchun global mehnat bozoriga yo‘l ochdi. Bu esa bir tomondan imkoniyatlar eshigini ochsa, ikkinchi tomondan, milliy intellektual genofondning saqlanib qolishi masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Intellektual migratsiya mavzusi fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, iqtisodiyot, sotsiologiya, siyosatshunoslik va falsafa fanlari kesishmasida o‘rganiladi. Ushbu mavzuning nazariy asosini tashkil etuvchi asosiy konsepsiyalarni sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Klassik va zamonaviy migratsiya nazariyalari. Migratsiya jarayonlarini tushuntirishda eng keng tarqalgan yondashuv neoklassik iqtisodiy nazariya doirasidagi “push-pull” (itarish va tortish) modelidir. E.Li, J.Xarris va M.Todaro kabi olimlar migratsiyani individual ratsional tanlov sifatida, kutilayotgan daromadlarni maksimalashtirishga urinish deb baholaganlar. Ularning fikricha, ish haqi o‘rtasidagi tafovut migratsiyaning asosiy drayveri hisoblanadi [2][3].

Biroq, intellektual migratsiya oddiy ishchi kuchi migratsiyasidan farq qiladi. Yuqori malakali mutaxassislar

uchun faqat moddiy omillar emas, balki kasbiy rivojlanish imkoniyati, siyosiy barqarorlik, akademik erkinlik va infratuzilma sifati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki ziyolilar jamiyatda nafaqat bilim tashuvchisi, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi va madaniy qadriyatlarini avlodlardan-avlodga o'tkazuvchi subyektlar hisoblanadi.

Xirshman nazariyasi. Amerikalik iqtisodchi Albert Otto Xirshman har qanday tizim (xoh u kompaniya bo'lsin, xoh davlat) samarasizlasha boshlaganda, uning a'zolarida (fuqarolarda) ikkita asosiy reaksiya mexanizmi ya'ni "chiqish" (tizimni tark etish) va "ovoz" (tizimni ichkaridan o'zgartirishga urinish) mavjudligini ta'kidlaydi. Bu ikki mexanizmga ham birdek ta'sir qiluvchi uchinchi element – sadoqat hisoblanib, u "chiqish"ni to'xtatib turuvchi va "ovoz"ni faollashtiruvchi psixologik va axloqiy to'siqdir [4]. Agar shaxs o'z vataniga yoki tashkilotiga sadoqatli bo'lsa, u darhol ketib qolmaydi, balki vaziyatni o'nglash uchun harakat qiladi. Intellektual migratsiya bilan bog'liq axloqiy dilemmaning mohiyatini ham aynan sadoqat, ijtimoiy mas'uliyat kategoriyalari orqali tushuntirish mumkin.

Kosmopolitizm va kommunitarizm dialektikasi. Intellektual migratsiya ikki xil falsafiy dunyoqarash ya'ni insonning axloqiy majburiyatlari milliy chegaralar bilan cheklanmasligi tarafdorlari (kosmopolitizm) va inson ma'lum bir jamiyat va madaniyatning mahsuli ekanligi g'oyasini ilgari suruvchilar (kommunitarizm) o'rtasida qarama-qarshilikni vujudga keltiradi. Kosmopolitizm tarafdorlari uchun individning erkinligi va o'z salohiyatini eng yaxshi ro'yobga chiqarishi birlamchi qadriyatdir [5]. Agar o'zbek olimi AQShdagi laboratoriyada saraton kasalligiga davo topa olsa, uning ketishi butun insoniyat uchun, shu jumladan O'zbekiston uchun ham foydalidir. Kommunitarizm namoyondalarining fikricha, davlat fuqarolarining ta'lim olishi va voyaga yetishi uchun katta resurs sarflagan, shuning uchun fuqaro, ayniqsa noyob mutaxassis (shifokor, o'qituvchi) o'z jamiyati oldida ma'lum majburiyatlarga ega[6].

**Metodlar.** Intellektual migratsiyaning ijtimoiy-falsafiy tahlili mazkur masalani har taraflama ko'rib chiqishni talab etadi. Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy yondashuv va metodlardan foydalanildi:

- Tizimli yondashuv: migratsiya jarayoni yagona ijtimoiy tizimning elementi sifatida ko'rildi. Ushbu metod intellektual migratsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar majmuasi bilan bog'liq holda kompleks tahlil qilishga yordam berdi.

- Qiyosiy (komparativ) tahlil: Intellektual migratsiya bilan bog'liq holatlar va statistik ma'lumotlar turli mamlakatlar misolida solishtirildi.

- Aksiologik va germinetivik tahlil: Migratsiya bilan bog'liq axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi dilemmalarni (burch, sadoqat, erkinlik) tahlil qilishda falsafiy matnlar talqini amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Intellektual migratsiyaning asosiy determinantlari. Odatda, intellektual migratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi rivojlanayotgan jamiyatlarda emasligi hamda rivojlangan mamlakatlar taqdim etayotgan imkoniyatlarning jozibadorligidir. O'z yurtida yetarli ilmiy-amaliy istiqbol ko'rmayotgan, o'z mehnatini munosib baholanishiga erisha olmagan ziyolilar va malakali mutaxassislar tabiiy ravishda intellektual migratsiya subyektiga aylanishadi. Bu jarayonga sabab bo'luvchi omillarni bir necha guruhga ajratish mumkin:

Iqtisodiy omillar: Rivojlanayotgan davlatlarda mehnat haqining nisbatan pastligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga moliyaviy qo'llab-quvvatlashning sustligi ko'plab yuqori malakali kadrlarda chet elda faoliyat yuritish istagini uyg'otadi.

Yashayotgan mamlakatlarida o'zlari shug'ullanayotgan ilmiy faoliyatning moliyaviy istiqbolini ko'ra olmaslik[7], ziyolilar, tadqiqotchilar, olimlarning faoliyatiga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi[8], iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning yo'qligi[9] singari faktorlar iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlardan aqlli insonlarning ketib qolishiga sabab bo'ladi.

Kasbiy o'sish (kariyera): Rivojlanayotgan mamlakatlarda ilmiy faoliyat uchun zarur moddiy-texnik baza va ilmiy muhit yetarli bo'lmisligi sababli, iqtidorli tadqiqotchilar o'z kashfiyotlarini ro'yobga chiqarish uchun xorijga chiqishni ma'qul ko'rishmoqda. O'z yurtida ilm-fanga ajratiladigan e'tibor va grantlarning yetishmasligi ularda intellektual salohiyatini to'la namoyon etu olmaslik hissini uyg'otadi.

Ijtimoiy va siyosiy omillar: Ba'zi hollarda intellektual migratsiya faqat iqtisodiy motivlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit va siyosiy vaziyat bilan ham bog'liq bo'ladi. Agar jamiyatda iste'dod egalarining mehnati va yutuqlari yetarlicha e'tirof etilmasa, ijtimoiy adolat tamoyillari buzilsa yoki siyosiy cheklovlar sabab ilmiy erkinlik ta'minlanmasa, ziyoli qatlam vakillarida norozilik paydo bo'ladi. "Agar jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmasdan, turli to'siqlar va tazyiqlar sababli istiqbol ko'rmasa, ziyoli inson boshqa mamlakatga chiqib ketadi" degan xulosa ushbu jarayonni boshdan kechirgan mutaxassislar tomonidan ko'p tilga olinadi. Jumladan, korrupsiya va oqilona boshqaruvning yetishmasligi ko'plab yoshlarni chet elga intilishiga olib keladi. Bunday hollarda intellektual migratsiya o'z vatanida o'zini foydali deb bilmay qolgan insonlarning "oyoqlari bilan ovoz berishi" ya'ni mamlakatni tark etishi sifatida namoyon bo'ladi.

Global imkoniyatlar va tortish omillari: Rivojlangan davlatlar o'z iqtisodiy yutuqlarini mustahkamlash maqsadida chet ellik yuqori malakali mutaxassislarni faol jalb qiladilar. Xususan, AQSh, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar malakali immigratsiya uchun qulay sharoitlar yaratib, ish vizalari, tadqiqot grantlari, startaplar uchun venchur kapital kabi ko'plab tortish omillariga ega. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2000-yillar davomida yuqori ma'lumotli immigratsiya ko'rsatkichlari doimiy ravishda yuqori bo'lgan. Masalan, Yevropa va Shimoliy Amerikaga kelgan migrantlarning sezilarli qismi oliy ma'lumotli kadrlar edi[10]. Global yilgoyosda nufuzli universitetlar va ilmiy markazlarning tengsiz obro'si ham iqtidorli yoshlarni o'ziga jalb qiluvchi muhim omil bo'lib, 2017-yilga kelib chet elda tahsil olayotgan xalqaro talabalar soni 4,6 milliondan oshdi[11]. Bu yosh mutaxassislarning muhim qismi tahsil olgan mamlakatida ish qidirib qolishga intiladi, chunki u yerda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llash uchun yaxshiroq sharoit mavjud.

Yuqoridagi omillar yig'indisi intellektual migratsiya jarayonini shakllantiradi. Rivojlanayotgan davlatlarda ilmiy kadrlar yetishmasligi aynan shu omillar natijasida kuchaymoqda.

Intellektual migratsiyaning dinamikasi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlariga ko'chib o'tayotgan oliy ma'lumotli migrantlar soni so'nggi o'n yillikda keskin o'sdi. Masalan, OECD davlatlarida yashovchi xorijda tug'ilganlarning 29 foizi oliy ma'lumotga ega[1]. O'zbekiston uchun bu tendensiya ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, mamlakat yoshlari global ta'lim makoniga integratsiyalashmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda chet elda ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 110 000 nafardan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoda beshinchi o'rinni (Xitoy, Hindiston, Vetnam va Germaniyadan keyin) egallagan[12]. Bu ulkan intellektual salohiyatning shakllanishidan dalolat beradi. Biroq, ikkinchi tomondan, bu talabalarning qanchasi vataniga qaytishi va o'z bilimini mahalliy iqtisodiyotga yo'naltirishi jiddiy savol

ostida qolmoqda. Intellektual migratsiyaning ijtimoiy oqibatlari va ijobiy jihatlari. Intellektual migratsiya bir vaqtning o'zida qator salbiy va ijobiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Dastlab mazkur tendensiyaning ijtimoiy oqibatlariga e'tibor qaratsak:

- Kadrlar yetishmovchiligi va ilmiy salohiyatning susayishi: Rivojlanayotgan jamiyatlar uchun intellektual migratsiyaning eng og'riqli oqibati strategik ahamiyatga ega sohalarda yuqori malakali kadrlarning kamayib ketishi hisoblanadi. Intellektual migratsiya natijasida vujudga keladigan bo'shliqni qisqa muddatda to'ldirish qiyin, chunki yangi kadrlar tayyorlash ko'p yillar va resurslarni talab etadi. Boshqacha aytganda, intellektual migratsiya donor davlatlarning raqobatdoshligini pasaytiruvchi omil bo'lib, ular yaratayotgan ilmiy yangiliklar va kashfiyotlar endilikda retsipiyent davlatlar mulkiga aylanadi.

- Ijtimoiy sohalardagi inqirozlar: Ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda malakali shifokorlar va o'qituvchilar xorijga ketishi tufayli ushbu sohalarda kadrlar tanqisligi vujudga kelmoqda. Malakali tibbiyot xodimlarining boy berilishi bu davlatlarda o'lim ko'rsatkichlarining oshishiga bevosita sabab bo'lishi mumkin, chunki aholiga yetarli tibbiy xizmat ko'rsatish imkoni qisqaradi. Xuddi shuningdek, iqtidorli professor-o'qituvchilarni yo'qotgan ta'lim tizimida ham ta'lim sifati pasayishi, yosh avlodning ilm olish imkoniyatlari cheklanishi kuzatiladi. Bu holat oxir-oqibat jamiyatning jismoniy va ma'naviy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- Axloqiy va psixologik oqibatlar: Intellektual migratsiya nafaqat struktura darajasida, balki shaxsiy darajada ham muayyan axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. O'z vatandoshlari iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan bir paytda, xorijga ketgan ziyoli fuqaroning vijdonida ma'lum bir mas'uliyat hissi tug'ilishi mumkin.

Intellektual migratsiyaning salbiy oqibatlari bilan bir qatorda ma'lum ijobiy jihatlari ham mavjud. To'g'ri olib borilgan migratsion siyosat va sharoitlar mavjud bo'lsa, "brain drain" vaqt o'tib "brain gain"ga ya'ni intellektual kapitalning ortig'i bilan qaytishiga ham aylanishi mumkin. Intellektual migratsiyaning quyidagi ba'zi ijobiy ta'sirlari ham mavjud:

- Diaspora tarmoqlarining roli: Xorijga ko'chib ketgan ziyolilar va mutaxassislar ko'pincha yangi jamiyatga integratsiyalashib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritibgina qolmay, bir-birlari bilan hamjihatlikda diaspora jamoalarini shakllantiradilar. Bunday yuqori malakali xorijdagi diasporalar vatandoshlariga muntazam ko'maklashib turishi, o'z vataniga ilmiy-texnik yutuqlarni yetkazib berishi mumkin. Diaspora vakillari ko'pincha vatandagi ijtimoiy loyihalarni qo'llab-

quvvatlaydi, xayriya va investitsiya faoliyatini amalga oshiradi. Bu esa diaspora va vatan orasidagi do'stona aloqalar milliy hamjihatlik, insonparvarlik va qardoshlik kabi axloqiy tamoyillarni mustahkamlaydi.

- Innovatsion g'oyalari va bilimlar almashinuvi: Intellektual migratsiya oqimi natijasida rivojlangan davlatlarga ketgan olim va talabalar u yerda zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtiradilar. Agar ular ma'lum muddatdan so'ng vatanga qaytishga qaror qilsalar, o'zlari bilan boy ilmiy tajriba va innovatsion g'oyalarni olib keladilar. Bu jarayon ilm-fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirishi, mahalliy kadrlar malakasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

- Demokratik va madaniy qadriyatlar tarqalishi: Intellektual migratsiya faqat iqtisodiy-innovatsion jarayonlargagina emas, balki ijtimoiy qadriyatlarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, ilmiy va mehnat migratsiyasi tufayli xorijda yashab, demokratik jamiyat tajribasini o'z ko'zi bilan ko'rgan migrantlar vatanga qaytgach, erkin fikrlash va ochiq jamiyat tamoyillarini targ'ib etishga moyil bo'ladi.

**Xulosa.** Intellektual migratsiya hodisasining ijtimoiy-falsafiy tahlili quyidagi umumiy xulosalarga olib keladi:

Intellektual migratsiya - muqarrar jarayon: Globallashtirilgan dunyoda inson kapitalining harakatini ma'muriy choralar (taqiqlar, cheklovlar) bilan to'xtatib bo'lmaydi. Bu inson huquqlariga ziddir va uzoq muddatda samarasizdir.

Ijtimoiy-axloqiy xatarlar: Malakali kadrlarning, ayniqsa, tibbiyot va ta'lim sohasidan ketishi jamiyatning ijtimoiy himoya tizimini zaiflashtiradi va kelajak avlod sifatiga tahdid soladi. Bu esa davlat oldiga ijtimoiy shartnomani yangilash vazifasini qo'yadi.

Yechim - ekotizim yaratish: "El-yurt umidi" kabi dasturlar muhim, lekin yetarli emas. Ziyolilarning vatanda qolishi yoki qaytishi uchun nafaqat yuqori maosh, balki o'z fikrini erkin ifoda etish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, adolatli meritokratiya va ilmiy erkinlik muhiti zarur. Inson o'zini tizimning bir qismi deb his qilsagina va o'zgarish qila olishiga ishonsagina, sadoqat ko'rsatadi.

Diaspora - strategik resurs: Intellektual migratsiyaning fojia sifatida emas, balki global tarmoqlashish imkoniyati sifatida qabul qilish kerak. Davlat siyosati xorijdagi vatandoshlarni davlatni rivojlanishidagi hamkorlar sifatida ko'rishi lozim.

O'zbekiston intellektual migratsiya chorhasida turibdi. Agar mamlakat o'zining eng yaxshi farzandlari uchun munosib intellektual va ma'naviy muhit yarata olsa, intellektual migratsiya fojia emas, balki milliy yuksalishning global drayveriga aylanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Paez-Deggeller V. Top Statistics on Global Migration and Migrants [Elektron manba] // Migration Policy Institute. - 2025. - 26 August. - URL: <https://www.migrationpolicy.org/article/top-statistics-global-migration-migrants>.
2. Todaro M. Economic Development. - 5th ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
3. Rapoport H. Who is Afraid of the Brain Drain? A Development Economist's View [Elektron manba] // CEPII Policy Brief. - 2017. - № 14. - URL: [https://www.cepii.fr/pdf\\_pub/pb/2017/pb2017-14.pdf](https://www.cepii.fr/pdf_pub/pb/2017/pb2017-14.pdf)
4. Hirschman A. O. Exit, Voice, and Loyalty: Responses to Decline in Firms, Organizations, and States. - Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 1970. - 176 p.
5. Blake M. Debating Brain Drain: An Overview // Moral Philosophy and Politics. - 2016. - Vol. 3, № 1. - P. 21-35.
6. Brock G., Blake M. Debating Brain Drain: May Governments Restrict Emigration. - New York: Oxford University Press, 2015. - 304 p.
7. Семенова Е.Б. «Утечка умов» как процесс социальной мобильности: причины и социальные последствия // Вестник Тамбовского университета. Серия Общественные науки. - Тамбов, 2016. - Т. 2. - Вып. 3 (7). - С. 62-65.
8. Луценко Н.О. «Утечка мозгов»: тенденции и меры по преодолению // Власть. - М., 2013. - № 8. - С. 58-60.
9. Леденева В.Ю. Интеллектуальная миграция: мировые и российские тенденции // Высшее образование в России. - М., 2014. - № 2. - С. 35-42.
10. OECD & UN DESA. World Migration in Figures. OECD-UNDESA Report, October 2013. - URL: <https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/topics/policy-sub-issues/international-migration-trends/world-migration-in-figures.pdf>
11. Zong J. International Students in the United States [Elektron manba] // J. Zong, J. Batalova // Migration Information Source. - 2018. - URL: <https://www.migrationpolicy.org/article/international-students-united-states>
12. Fleck A. The Countries With The Most Students Studying Abroad [Elektron manba] // Statista. - 2024. - URL: <https://www.statista.com/chart/3624/the-countries-with-the-most-students-studying-abroad/>